

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ASRAROVA MUXABBAT USMANDJONOVNA

M.N.BOLTAYEV ILMIY-FALSAFIY MEROSINING
UMUMINSONIY AHAMIYATI (FALSAFIY TAHLIL)

09.00.03 – Falsafa tarixi

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Asrarova Muxabbat Usmandjonovna

M.N.Boltayev ilmiy - falsafiy merosining umuminsoniy ahamiyati
(falsafiy tahlil)3

Асрарова Мухаббат Усманджоновна

Общечеловеческое значение научно-философского наследия М.Н.Болтаева
(философский анализ).....23

Asrarova Mukhabbat Usmanjonovna

The universal human significance of the scientific and philosophical heritage of
M.N.Boltayev (philosophical analysis).....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of works published52

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ASRAROVA MUXABBAT USMANDJONOVNA

M.N.BOLTAYEV ILMIY- FALSAFIY MEROSINING
UMUMINSONIY AHAMIYATI (FALSAFIY TAHLIL)

09.00.03 – Falsafa tarixi

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/Fal477 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusova Gulandom Samiyevna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Navro'zova Gulchixra Negmatovna
falsafa fanlari doktori, professor

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "30" may soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (684 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" may kuni tarqatildi.

(2025-yil "14" may dagi 11 raqamli reyestr bayonnomasi.)


Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor


Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor


Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalaridagi o'zgarishlar inson ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladigan ajdodlar merosini zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirib borishni taqozo etmoqda. Ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek ilm-fanida ilmiy maktablarining shakllanishi, falsafada yangicha yondashuvlar, tamoyillarning rivoji o'zbek falsafasi tarixining murakkab davrini zamonaviy yondashuvlar asosida o'rganishda muhimdir. Globallashuv, ma'naviy transformatsiya va modernizatsiya jarayonida Sharq xalqlari merosidan unumli foydalanish, M.Boltayevning yaratgan boy ilmiy merosini bugungi davr kontekstida o'rganish, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga solishda uning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy qarashlarini, inson kamolotida gnoseologik qarashlari bilim va tajriba orqali takomillashib borishiga oid antropotsentrik tamoyillarini ochib berish, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida Sharq diniy-falsafiy ta'limotlari, ayniqsa tasavvuf ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlangan Markaziy Osiyo mutasavviflarining ilmi irfonga oid qarashlarining o'ziga xos xususiyatlarini va yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini asoslashga oid fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, sobiq ittifoq davrida milliy falsafasini o'rganishdagi noxolisliklar, o'zbek falsafasini o'rganishdagi bir yoqlama yondashuvlarning mavjudligi mazkur muammo bo'yicha zamonaviy izlanishlarni taqozo qilmoqda. Shu ma'noda, o'zbek faylasuf olimi Muhammad Boltayevning falsafa va tasavvuf g'oyalari, tariqat tamoyillari, ularning davr axloqiy tendensiyalariga ta'siri, umuminsoniy qadriyatlarga uyg'unligiga oid qarashlarini bugungi ma'naviy, diniy-ijtimoiy yangilanishlar va taraqqiyot asosida o'rganish hamda ulardan insonni komilik sari tarbiyalashdagi muammolar yechimida foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda tarixiy-madaniy merosni qayta tiklash, o'zbek ilm-fani namoyandalarining ilmiy merosini o'rganish hamda uni jamoatchilikka yetkazishga, yuksak axloqiy tarbiya va kuchli bilimga asoslangan har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashga oid islohotlar olib borilmoqda. "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur"¹. Shu uchun o'zbek falsafasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Muhammad Boltayevning falsafiy merosini tahlil etish, uning G'arb va Sharq falsafasi, tasavvuf falsafasining o'ziga xos tomonlari, muhim masalalarini hal etishdagi ahamiyatini ochib berish, barkamol insonni tarbiyalashda ijobiy ta'sir etuvchi falsafiy, tasavvufiy g'oyalarining mohiyatini xalqimiz ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – B.225.

etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 iyundagi 466-son “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 17-noyabrdagi 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta’minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek falsafasi va milliy madaniyati sohasida ilmiy ishlari bilan tanilgan olim Muhammad Boltayev ilmiy ishlari va nazariy izlanishlari ko‘plab olimlar va tadqiqotchilari tomonidan muhokama qilingan va tadqiqotlarida havolalar berilgan. Uning ibratli hayot yo‘li, ilmga ayniqsa, Sharq va G‘arb falsafasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, izlanishlari, Sharq falsafasining tarkibiy qismi hisoblangan tasavvuf falsafasi borasidagi tadqiqotlari hozirgi kunga qadar alohida ilmiy tadqiqot obyektiga aylantirilmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida M.Dinorshoyev, M.Hazratqulov, N. Abduxamidov, M. Karimova, X. Shoixtiyorov kabi tojikistonlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida M.Boltayev asarlariga murojaatni kuzatish mumkin². Bu olimlar M.Boltayev rahbarligida u kishi bilan hamnafas bo‘lgan va ilmiy maktabning davomchilari, ya’ni shogirdlaridir. Ayniqsa, M.Boltayevning mashhur monografiyasiga Tojikiston Fanlar Akademiyasi

² Диноршоев М. Философия Насириддина Туси // отв. ред. акад. М. С. Асимов; АН Тадж. ССР. Отд. философии. — Душанбе: Дониш, 1968. — 157 с. Хазраткулов М. Тасаввуф. - Душанбе: «Маориф», 1988. - 128 с. Абдухамидов Н. Вклад Ходжа Насируддина Туси в развитие науки и образования таджикского народа. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Душанбе-2021.-29 с. Каримова М. Этические проблемы в антропологии Ибн Сины. // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата философских наук. Душанбе – 2009. -22 с. Шоихтиёров Х. Социальная философия Насириддина Туси. // Автореферат Диссертации на соискание ученой степени доктора философских наук. Душанбе-2009. -56 с.

akademigi A.Bogoutdinov tomonidan ijobiy taqriz berilgan³.

Mamlakatimizda ustozimiz M.N.Boltayevning ko'plab shogirdlari - professorlar G.Navro'zova⁴, A.Huseynova⁵, N.Safarova⁶, B.Karimov⁷, O.Sharipova⁸, B.Namozov⁹ va ko'plab boshqa tadqiqotchilar tomonidan M.Boltayev ilmiy merosi, dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy muhit, naqshbandiylik ta'limotining badiiy, falsafiy qarashlariga ta'siri masalalari tadqiq etilganligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq. Shu qatorda, taniqli faylasuf olimi, tarixchi M.A.Guashon tomonidan ustoz M.N.Boltayevning doktorlik monografiyasiga o'sha davrda ijobiy taqriz berilganligi haqidagi ma'lumotga ega bo'ldik¹⁰.

Tadqiqot ishida yuqorida nomlari qayd etilgan xorijlik va mahalliy olimlarning badiiy, falsafiy mazmundagi ilmiy tahlillari e'tiborga olindi. Umuman tasavvuf, alohida tariqatlarning irfoniy, falsafiy, aksiologik jihatlari, Ibn Sino merosining tadqiq etilganligi, lekin M.Boltayev ilmiy merosining falsafiy tahlili bo'yicha yaxlit kompleks ilmiy tadqiqot amalga oshirilmaganligi sababli mazkur tadqiqotda ushbu muammoga ilmiy-nazariy yondashishga, metodologik asoslarini ishlab chiqishga, uning strukturaviy-funksional jihatdan uyg'unlashtirish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IV band "O'zbekiston tarixini o'rganishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy muammolari: yechim, qiyosiy tahlil" (2020-2025 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Muhammad Boltayev ilmiy-falsafiy merosining insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rni hamda jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

M.Boltayev hayot yo'li va ilmiy dunyoqarashining nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish;

olimning falsafa tarixiga oid ilmiy maktabning shakllanishidagi o'rnini aniqlash hamda ilmiy merosini tasniflash;

³ Болтаев М.Н. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн Сины и его школы. –Д.: Ирфон, 1965. - 10 стр.

⁴ Наврўзова Г.Н. Тасаввуфшунослик мактабини яратган олим // Ўзбекистонда фалсафа тарихи мактаби ва учинчи Ренессанс:халқаро илмий-амалий конференция материаллари. -Тошкент: ТашГУ, 2022. -В.47-50.;

⁵Хусейнова А. Шарқ мутафаккирлари дунёқарашида умуминсоний кадриятлар.-Т.: Парадигма, 2017.-В.13.;

⁶ Сафарова Н.О. Хожакон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий кадриятлар масаласи:фал.фан.ном. Дисс... -Тошкент, 2002. -В.152.;

⁷ Каримов Б.Ш. Амбак Бухорийнинг ижтимоий қарашлари: Соц.фан.номз. автореф. -Тошкент; 2004. – В.25.;

⁸ Шарипова О., Каримов Б. Профессор Муҳаммад Назарович Болтаев ҳаёти ва ижодининг асосий саналари, илмий асарлари кўрсаткичи. –Бухоро, 2008. -В.22.; Шарипова О.Т. Абдухлоқ Ғиждувоний ҳаёти ва маънавий мероси. Монография. – Тошкент: Фан, 2008. – В.198.; Намозов Б. Фалсафанинг долзарб муаммолари: Республика илмий-назарий конференция тўплами.. – Бухоро, 2014. - В. .252.;

⁹ Намозов Б. Фалсафанинг долзарб муаммолари: Республика илмий-назарий конференция тўплами.. – Бухоро, 2014. - В. .252.;

¹⁰ Болтаев М.Н. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн Сины и его школ. –Д.: Ирфон, 1965. - 18 стр.; Goishon A. M. The Philosophy of Avicenne and its influence on Mdieval Europe. Motilal Banarsidass; Afhan S.M. Avicenne. His life and works. - London 1958;

M.Boltayevning Ibn Sinoning gnoseologiya ilmiga oid qarashlarini tahlil qilish;

antik davr va nemis klassik falsafasi namoyandalari merosining umuminsoniy mohiyatini o'rganishda M.Boltayev merosining ahamiyatini asoslash;

olimning "Xojagon-Naqshbandiya" ta'limotiga doir mulohazalarini, Abdurahmon Jomiyning inson hayotining mazmuniga oid qarashlari tahliliga oid tahlillarini umumlashtirish;

M.Boltayevning sotsiologiya ilmiga oid tadqiqotlari mohiyatini hamda ilmiy merosining umuminsoniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Muhammad Nazarovich Boltayev ilmiy merosi, bu merosning tahlilga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Muhammad Boltayev tadqiqotlaridagi tasavvufiy qarashlarni, Abu Ali ibn Sino ilmiy merosining tadqiq etilish xususiyatlari, antik davr va nemis klassik falsafasi namoyandalari merosining falsafiy tahlili, Abdurahmon Jomiyning "inson hayoti" tushunchasi mohiyati va sotsiologiya ilmiga oid ilmiy izlanishlarning umuminsoniy ahamiyatini tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, biografik va avtobiografik, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germeneytik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

M.Boltayevning dunyoqarashi shakllanishida diniy tarbiya (Sharq mutafakkirlari qarashlari ta'siri, tasavvufiy ta'limotlar, axloqiy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi) oila va ta'lim roli ustuvorligi (ziyolilik, ilmiy mentorlar, ustozlari V.Asmusning turli falsafiy oqimlar orasidagi bog'liqlikka oid qarashlari) ta'sir etganligi va shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimida insonning axloqiy komilligi va ijtimoiy roli ustuvorligi aniqlashtirilgan;

M.Boltayev ma'naviy merosida tasavvufning Xojagon-Naqshbandiya ta'limoti ijtimoiy faollik, milliy o'zlikni anglash Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband ilmiy merosi misolida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini yanada rivojlantirishga qaratilganligi mantiqiy isbotlangan;

olimning tasavvufiy qarashlarida "olami-asg'ar" (kichik olam) – "olami-Akbar" (katta olam) kategoriyalari asosiy omil ekanligi, qalb, ruh, ma'naviy fikr va bilish quvvati cheksizligi g'oyalari insonni komillik darajasiga yetkazishga xizmat qilishi, "tasavvuf – diniy-falsafiy insonshunoslik ilmi" sifatida asoslanganligi dalillangan;

M.Boltayevning sotsiologiyaga oid tadqiqotlarining xom-xayolga qarshi – haqiqiy, yaramasga qarshi – foydali, shak-shubhalikka qarshi – ishonchli, xira, noaniqqa qarshi – aniq, vayron qiluvchiga qarshi – yaratuvchi kabi umuminsoniy pozitivistik xususiyatlari, falsafiy antropologiyada aql-tafakkurga tayanib tavsiflash, irqiy-antropologik tamoyillari hamda tarixiy-madaniy an'analar, ijtimoiy jarayonlar va siyosiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanish mezonlari asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Muhammad Boltayev ilmiy merosida sinoshunoslik ilmida ilk marotaba allomaning merosiga munosabat ifodalangan hamda Abdurahmon Jomiy falsafasida inson umrining mazmuni tahlil etilgan va ularning g'oyalari keyingi davr ilm-fan taraqqiyotiga ta'siri (tushunish imkoniyatini oshirish) ochib berilgan;

Muhammad Boltayev ilmiy-falsafiy merosida Suqrot va Platon, Kant falsafasining mohiyati, bilim, axloq muammolariga katta e'tibor berilganini, sokratik o'z-o'zini bilish va tanqidiy mulohaza yuritish an'analari, inson hatti-harakatlarining axloqiy asoslariga kantcha yondashuvning ustuvorligi dalillangan;

olimning ma'naviy-axloqiy, ilmiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-falsafiy, siyosiy qarashlari zamonaviy ta'lim-tarbiyani shakllantirishda konstruktiv, ya'ni samaraviy va o'zaro uyg'unlashtiruvchi muhim omil ekanligi falsafaning atributiv kategoriyalari vositasida dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Muhammad Boltayevning ilmiy-falsafiy merosida ilgari surilgan konseptual g'oyalar va umumnazariy xulosalar ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi mantiq, falsafa, falsafa tarixi, tasavvuf falsafasi doirasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar va metodologik yondashuvlarni takomillashtirish jarayonida, shuningdek, nazariy-falsafiy g'oyalar, umumlashtirilgan ilmiy xulosalardan ijtimoiy falsafa, huquq falsafasi, sotsiologiya, madaniyatshunoslik fanlarining nazariy-metodologik bazasini boyitishda, hamda falsafa sohasi bo'yicha mutaxassislarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan islom dini, ilohiyoti va falsafasi mohiyatini o'rganish, Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va falsafiy tafakkur rivoji, uning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek, zamonaviy yoshlarda intellektual fazilatlarni, ma'naviy-axloqiy rivojlanishni shakllantirish, jamiyatda ta'limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolotga intilishini rag'batlantirish, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni zo'rovonlik va radikalizm mafkurasidan himoya qilishda, falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, iqtisodiy fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muhammad Boltayev ilmiy-falsafiy merosining insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rni hamda jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyatini tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

M.Boltayevning dunyoqarashi shakllanishida diniy tarbiya (Sharq mutafakkirlari qarashlari ta'siri, tasavvufiy ta'limotlar, axloqiy va umuminsoniy

qadriyatlar ustuvorligi) oila va ta'lim roli ustuvorligi (ziyolilik, ilmiy mentorlar, ustozi V.Asmusning turli falsafiy oqimlar orasidagi bog'liqlik o'ldirishlari) ta'sir etganligi va shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimida insonning axloqiy komilligi va ijtimoiy roli ustuvorligi aniqlanganligiga oid ilmiy natijalar hamda amaliy taklif-tavsiyalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining "Assalom Buxoro", "Inson qadri uchun" ko'rsatuvlarini tayyorlashda va bevosita suhbat jarayonini suratga olishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 19-yanvardagi 01-09-07-son ma'lumotnomasi). Natijada, inson kamolotida qalb, nafs, tana, ruh, ilm va amal haqidagi g'oyalar shaxsning ijtimoiy-ma'naviy kamolotiga xizmat qilganidagina o'z funksiyasini bajarishi mumkinligi haqidagi g'oyalarni efirga uzatilishi eshittirishlarning samaradorligini ortishiga hamda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksalishida, mafkuraviy immunitetning ortishida, falsafiy mushohadasining kengayishiga xizmat qilgan;

M.Boltayev ma'naviy merosida tasavvufning Xojagon-Naqshbandiya ta'limoti ijtimoiy faollik, milliy o'zlikni anglash Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband ilmiy merosi misolida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini yanada rivojlantirishga qaratilganligiga oid ilmiy xulosalar va nazariy umumlashmalardan Respublika "Istiqbolli avlod" ijtimoiy – axborot markazining "Dunyo yoshlar nigohida" (2020 y) grant loyihasi doirasida ishlab chiqilgan metodik tavsiya-takliflarda foydalanilgan (O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining 2024-yil 29-yanvardagi 01/52-24-son ma'lumotnomasi). Natijada, grant loyihasini yanada takomillashtirishga, M.N.Boltayevning falsafiy qarashlarida islohotchilik g'oyalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati va ijtimoiy hayotda yosh avlod kamolotiga bo'lgan munosabat masalalari falsafiy nuqtayi nazardan rivojlantirishga xizmat qilgan;

olimning tasavvufiy qarashlarida "olami-asg'ar" (kichik olam) – "olami-Akbar" (katta olam) kategoriyalari asosiy omil ekanligi, qalb, ruh, ma'naviy fikr va bilish quvvati cheksizligi g'oyalari insonni komillik darajasiga yetkazishga xizmat qilishi, "tasavvuf – diniy-falsafiy insonshunoslik ilmi" sifatida asoslanganligiga oid ilmiy-nazariy xulosalar va taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyati, jumladan "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risidagi Nizom" asosida ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, ekologik bilimlarni targ'ib qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, targ'ibot-tashviqot ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 12-martdagi 2-13-21-966-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar o'rtasida olib borilayotgan targ'ibot tadbirlari yoshlar dunyoqarashining yanada rivojlanishiga, yosh avlod kamolotiga bo'lgan munosabat masalalari falsafiy nuqtayi nazardan rivojlantirishga xizmat qilgan;

M.Boltayevning sotsiologiyaga oid tadqiqotlarining xom-xayolga qarshi – haqiqiy, yaramasga qarshi – foydali, shak-shubhalikka qarshi – ishonchli, xira, noaniqqa qarshi – aniq, vayron qiluvchiga qarshi – yaratuvchi kabi umuminsoniy pozitivistik xususiyatlari, falsafiy antropologiyada aql-tafakkurga tayanib

tavsiflash, irqiy-antropologik tamoyillari hamda tarixiy-madaniy an'analar, ijtimoiy jarayonlar va siyosiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanish mezonlariga oid ilmiy yangiliklar hamda taklif va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-2023- yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining shu yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 16-bandi "Buyuk alloma va mutafakkirlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, boy ma'naviy va madaniy meroslarini asrab-avaylash, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ'ib qilish"ga qaratilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 7-martdagi 91/2-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatda yoshlar ma'naviy dunyoqarashining yuksalishida, mafkuraviy immunitetining kuchayishiga, M.Boltayev ilmiy merosida inson kategoriyasining falsafiy mohiyatini asoslab berishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**M.Boltayev – XX asr o'zbek falsafasining yorqin vakili**" deb nomlangan birinchi bobida Buxoro falsafa tarixi ilmiy maktabi asoschisi, taniqli faylasuf, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor, Sharq falsafasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olim M.N.Boltayevning hayot yo'li va ilmiy dunyoqarashining shakllanishi nazariy metodologik asoslari tadqiq etilgan va olimning ilmiy merosi tasniflangan. XX asr o'zbek falsafasida akademiklar M.Xayrullaev, S.Shermumammedov, professor olimlar H.Aliqulov, R.Nosirov, M.Abdullayeva singari o'z ilmiy maktabini yaratgan Muhammad Nazarovich Boltayevning Buxoro

falsafa maktabi taraqqiyotida tutgan o'zni va ilmiy merosi falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, M.Boltayevning umr yo'li, hayotdagi murabbiylarining muhim o'zni, M.Boltayevning olim sifatida shakllanishlarida ustozlarining xizmatlari asoslab berilgan.

Dissertant O'zbekistonda falsafa o'zbek xalqining tafakkur tarzi sifatida XX asrda shakllandi, deya ta'kidlaydi. Uning shakllanishida Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Is'hoqxon Ibrat, So'fizoda singari ko'plab jadidlar xizmat qilgan. Ular ko'hna va boy Sharq falsafasi an'analarini sobiq mustabid sho'rolar davrida ham saqlab qolishga va rivojlantirishga intilishdi, ammo ular sho'ro tuzumining qurboniga aylanishdi. 1919-1921-yillarda A.Fitrat rahbarligida "Chig'atoy gurg'ini" deb nomlangan falsafiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy-adabiy to'garak tashkil etilgan¹¹.

Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tashkil etilishi o'zbek falsafasi urushdan keyingi 50-60-yillarda ijtimoiy fanlar, xususan falsafiy tadqiqotlarning ham bir muncha izga tushishiga turtki bo'ldi. O'tgan asrning 70-80-yillariga kelib falsafa sohasi ixtisoslashgan tadqiqotchilarga ega bo'ldi, deyish mumkin. Jumladan, M.Xayrullaev, M.Baratov, H.Vohidov, H.Aliqulov, R.Nosirov, S.Yo'ldoshev, A.Sharipov, M.Usmonovning ilmiy faoliyati, yaratgan asarlari falsafa tarixi masalalariga bag'ishlangan¹².

O'zbek olimlari tomonidan musulmon dunyosining ko'plab taniqli valiy sifat peshvolari bo'lmish Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Xoja Orif ar-Ravgariy, Bahouddin Naqshband va boshqa ko'plab diniy allomalar haqida ilmiy-falsafiy meros tadqiq etilgan¹³. Shunday olimlardan biri falsafa tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan olim M.N.Boltayevning ilmiy faoliyatini o'rganish va undan saboqlar olish muhim ahamiyatga ega.

Dissertant fikriga ko'ra, faylasuf olimning ilmiy-falsafiy merosi falsafa sohasidagi fundamental ishlardan hisoblanadi. Ayniqsa, M.Boltayevning Abu Ali ibn Sino falsafiy ta'limoti haqidagi tadqiqot va asarlari jahonshumul ahamiyatga ega. Shuningdek, antik davr faylasuflari Suqrot, Platon, Aristotel, nemis klassik falsafasi namoyandalari I.Kant, Gegel, Sharq falsafa tarixidagi tasavvuf namoyandalari, xususan, Abdulxoliq G'ijduvoni, Abdurahmon Jomiy ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib etishda M.Boltayevning xizmatlari beqiyos.

Faylasuf olim M.Boltayevning hayot yo'llari o'z tarixiga ega. Olim o'zi yozgan tarjimai holdagi ma'lumotga ko'ra, 1928 yilning 16 oktyabrida Buxoro shahrida ishchi oilasida tug'ilgan¹⁴. M.Boltayev 1954 yilda Moskva Davlat universiteti falsafa kafedrasida "Mantiqiy yetarli asos qonuni"¹⁵ mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilganlar. 1954-1974 yillarda

¹¹ Аликулов Хайдар. Ўзбекистон файласуфлари. Библиографик маълумот. -Тошкент: Ўзбекистон, 2001. -Б.5.

¹² Аликулов Хайдар. Ўзбекистон файласуфлари. Библиографик маълумот. -Тошкент: Ўзбекистон, 2001. -Б.5.

¹³ Наврўзова Г.Н. Бухоро тасаввуфшунослик мактабининг асосчиси // Аҳмад ибн Хафс Кабир Бухорий мероси ва унинг илк Шарқ Ренессанси ҳамда ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратишдаги ўрни ва аҳамияти: Халқаро илмий-амалий анжуман тўплами. -Бухоро: Бухорои шариф, 2022. -Б.37-43.

¹⁴ BuxDU arxivi. 449-varaq. 1-ilovaga qarang

¹⁵ Болтаев М.Н. Закон достаточного основания. Автореферат кандидатской диссертации. -М.: Издательство МГУ, 1954;

Tojikiston Davlat universiteti falsafa kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent, professor lavozimlarida, 1963-1965 yillar katta ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritganlar. 1966 yilda Moskvada sobiq Ittifoq Fanlar Akademiyasi Falsafa instituti huzuridagi Ixtisoslashgan ilmiy kengashda "Abu Ali ibn Sino va uning maktabi vakillarining asarlarida bilish nazariyasi va mantiq"¹⁶ mavzusidagi dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan, 1968 yilda professor ilmiy unvonini olishga muvaffaq bo'lgan. Olimning doktorlik dissertatsiyasini himoya qilganliklarining tasdig'i sifatida arxivda saqlanayotgan shaxsiy varaqalarida ko'rsatilgan diplom Fanlar Akademiyasi tomonidan tasdiqlanganligini ko'rdik. Ushbu diplom bayonnomasining qayd etilgan raqami va sanasiga havola berdik.

O'zbekistonda 1974-1975 yillarda Toshkent Davlat universiteti tarkibidagi Ijtimoiy fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirish instituti falsafa kafedrasida professor, 1975-1977 yillarda Toshkent davlat pedagogika chet tillari institutining falsafa kafedراسи mudiri, 1977-1986 yillar Qarshi Davlat pedagogika institutining rektori lavozimida faoliyat ko'rsatgan. M.N. Boltayev 1986 yildan boshlab umrining oxirigacha Buxoro Davlat universitetida faoliyat yuritgan.

Olimning Ibn Sino ma'naviy merosi yuzasidan qilgan tadqiqotlari ko'plab mutaxassislar davrasida qiziqish uyg'otgan. U kishining "Sotsiologiyada ijtimoiy davrinistik va irqiy-antropologik yo'nalish", "Ogyust Kont – sotsiologiya asoschisi", "Amerika sotsiologiyasining shakllanishi", "Amerika sotsiologiyasida texnokratik an'analar" kabi tadqiqotlari O'zbekistonda sotsiologiya fanining rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatga ega¹⁷.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, M.N. Boltayev ilmiy sohada dialektikaga oid muammolarni tadqiq etib, nazariy masalalarni ishlab chiqqan. Shu bilan bir qatorda, falsafiy qonun va kategoriyalarning mohiyati, ularning strukturasi va tizimi, namoyon bo'lish shakllari, o'zaro aloqadorligi, ilmiy bilish va amaliyotdagi o'rni, gnoseologiya va mantiq masalalarini tadqiq qilgan faylasufdir. M. Boltayev, asosan, falsafa tarixi yo'nalishi bilan shug'ullanib mazkur sohaga oid 300 dan ziyod chop etilgan ishlar muallifidir¹⁸.

M.N. Boltayevning ko'p yillik samarali pedagogik mehnatlari inobatga olinib, ularga "Mehnat shuhrati" hamda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Qori Niyoziy" nomidagi ko'krak nishonlari berilgan. Olim va ustoz M.N. Boltayevga 1978 yilda ilmiy-tadqiqot, mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari va keng qamrovli jamoatchilik faoliyati uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni berilgan¹⁹.

Tadqiqotda M.N. Boltayev hayoti davomida qoldirgan boy ma'naviy meros

¹⁶ Шарипова О., Каримов Б. Профессор Мухаммад Назарович Болтаев ҳаёти ва ижодининг асосий саналари, илмий асарлари кўрсатгичи. - Бухоро, 2008. - Б.7; Болтаев М.Н. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн Сины и его школы. Диплом ВАК от 15.04.1967 (протокол 18)

¹⁷ Qarang: Болтаев М.Н. Огюст Конт – социология асосчиси. - Бухоро, 2002. -Б.44; Социологияда ижтимоий дарвинистик ва иркий-антропологик йўналиш. -Бухоро, 2003.-Б.48.; Америка социологиясининг шаклланиши. -Бухоро, 2004. -Б. 24.

¹⁸ Шодиев Ж.Ж. М.Н.Болтаев –устоз файласуф // Фалсафанинг долзарб муаммолари: Республика миқёсидаги илмий-назарий конференция тўплами. - Бухоро, 2014. - Б.12.

¹⁹ Шарипова О., Каримов Б. Профессор Мухаммад Назарович Болтаев ҳаёти ва ижодининг асосий саналари, илмий асарлари кўрсатгичи. - Бухоро, 2008. - Б.42.

o'rganilib, ikki davrga bo'lingan:

1. *Mustaqillikkacha bo'lgan davrda yaratilgan asarlar.* Bu davrda M.Boltayev Ibn Sino va uning shogirdlari asarlarida bilish va mantiqqa oid ta'limotlarni mukammal o'rganganlar. Mazkur davrda yaratilgan ilmiy meros - falsafa, mantiq, gnoseologiya, tasavvuf, G'arb falsafasi yo'nalishlarida bo'lgan:

a) Falsafa, mantiq, gnoseologiya yo'nalishida - “Законы логического мышления”, “Материя ва шуур”, “Мантик”, “Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн Сины и его школы”, “Материализми диалектики” (хаммуаллиф “Политическое воспитание молодежи в современных условиях” kabi asarlar nashr etilgan.

b) Tasavvufni o'rganish yo'nalishida - “К вопросу о прогрессивных эстетических воззрениях мыслителей прошлого Средней Азии”, “Рационалистическая теория познания Фахриддина Рази”, “Носириддин Туси – великий ученый и мыслитель средневекового Востока”, “Мутафаккирони Шарк”, “Ақидаҳои фалсафии Абу Али ибн Сино”(жилди якум), “Ақидаҳои фалсафии Абу Али ибн Сино” (жилди дуюм), “Абу Али ибн Сина – великий мыслитель, учёный энциклопедист Средневекового Востока”, “Ибн Сина – выдающийся философ Средневекового Востока” kabi asarlar nashr etilgan;

v) Sharq va G'arb falsafasi yo'nalishida - “Abu Ali ibn Sino”, “Nosiriddin Tusiy”, “Muhammad G'azzoliy”, Fariduddin Attor”, “Shayx Sanoiy”, “Ubayd Zokoniyy” haqidagi o'nlab teran mazmunli kitoblar chop ettirilgan;

2. *Mustaqillik davrida yangi yondashuvlar asosida tasavvuf va sotsiologiyaga oid yozilgan asarlar va olib borilgan tadqiqotlar* - ²⁰

a) Falsafa, mantiq, gnoseologiya yo'nalishida - “Культурология”, “Фалсафа асослари”, “Мантик” kitoblari yozilgan;

b) Tasavvuf yo'nalishida - “Хўжаи жаҳон Абдуҳолиқ Ғиждувоний инсондўст ҳаким ва рифъат шайх”, “Носир Хисрав буюк донишманд ва мутафаккир”, “Абу Али ибн Сина – великий мыслитель, учёный энциклопедист”, “Абу Али Хусайн ибн Синонинг фалсафий-ижтимоий таълимоти”, “Абу Али ибн Сина”, “Заратустранинг тасаввуфий таълимоти”, “Тасаввуф психологияси”, “Шарқнинг буюк мутафаккирлари” kabi asarlar nashr etilgan;

v) Sharq va G'arb falsafiy ta'limotlariga bag'ishlangan tadqiqotlari - “Буюк мутафаккир Зардушт ва унинг “Авесто” китоби”, “Огюст Конт – социология асосчиси”, “Социологияда ижтимоий дарвинистик ва ирқий-антропологик йўналиш”, “Мумтоз социолог Вилфредо Парето”, “Америка социологиясининг шаклланиши”, “Мистическое учение Зороастры”. “Священные каноны маздеистов”, “Социология”, “Сократ ва Платон”, “Сократ”, “Моний ва монийлик”, “Тегелнинг мутлақ идеализми”, “Аристотель”, “Иммануил Кант” kabi ilmiy izlanish natijalari turli davlatlarda nashr etilgan.

Dissertatsiyada M.N.Boltayevning falsafiy ilmlarga oid ilmiy merosi Sharq va G'arb falsafasi tarixi; tasavvuf falsafasi; gnoseologiya; mantiq; etika-estetika; sotsiologiya va madaniyatshunoslik; siyosatshunoslik kabi yo'nalishlarda ekanligi

²⁰ Наврӯзова Г.Н. Тасаввуфшунослик фалсафаси мактабини яратган олим // Ўзбекистон фалсафа тарихи мактаби ва учинчи ренессанс: халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2022. – Б.48.

asoslab berilgan. M.N.Boltayev ma'naviy merosini o'rganish jarayonida olimning ilmiy ijodi serqirra va cheksiz ekanligi ta'kidlangan.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Muhammad Nazarovich Boltayev falsafa fani va Sharq falsafasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimdir. M.N.Boltayevning hayoti va ilmiy ijodi, dunyoqarashi shakllanishida oila muhitning insonga ta'siri katta bo'lgan. Olimning ma'naviy merosida G'arb va Sharq faylasuflarining ilmiy meroslari o'rganilgan va falsafaning umumnazariy masalalari qiyosiy tahlil etilgan. Ushbu ma'naviy meros xalqimiz va yoshlarimiz ma'naviyatini oshirishda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Abu Ali ibn Sino va antik davr mutafakkirlari ta'limotlarining M.Boltayev tadqiqotlarida o'rganilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida buyuk qomusiy alloma Abu Ali ibn Sino ta'limotini gnoseologik xususiyatlarining M.Boltayev tomonidan tadqiq etilishining o'ziga xos xususiyatlari, Ibn Sino maktabi vakillarining gnoseologiya va mantiqqa oid qarashlari hamda M.Boltayev tadqiqotlarida antik davr va nemis klassik falsafasi namoyandalari merosining falsafiy tahlili tadqiq etilgan.

Muhammad Boltayev o'z tadqiqotida Ibn Sinoning gnoseologik qarashlarini o'rgangan. Olimning mustaqillikkacha va mustaqillikdan keying davrda yaratilgan ilmiy-falsafiy asarlarning tahlili asosida ulardagi farq quyidagicha etib baholangan:

birinchi davrda Abu Ali ibn Sinoga bag'ishlab yozilgan ilmiy risolalar va adabiyotlarda jamiyatning o'rta asrlarda ilm-fanga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishlari, ayniqsa, Ibn Sino merosining asosini tashkil etuvchi turli soha: falsafa, tibbiyot, astronomiya, geologiya, matematika, fizika, lingvistika, she'riyat, musiqa alohida o'rin egallaydi²¹;

ikkinchi davrda yozilgan asarlarida Ibn Sinoning tasavvufga oid qarashlari ham yoritilgan. M.Boltayevning Ibn Sino asarlarida bilishga oid qarashlari maxsus tadqiq etilgan.

Dissertant Ibn Sinoning gnoseologik qarashlari, Boltayevning fikricha, empirik va aqliy bilimlar uyg'unligidan iborat bo'lib, oliy bilimga aql va ilohiy manbaga yaqinlashish orqali erishiladi, hissiy idrok esa voqelikni chuqurroq anglash uchun faqat boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qilishini ta'kidlagan. M.Boltayev fikrining amaliy natijasi sifatida, voqelikni bilishning murakkab jarayonida har bir sezgi o'ziga xos maqsadni ko'zlaydi. Beshta tashqi sezgi a'zolari – ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish, teri orqali bilish yordamida tashqi va ichki dunyo obyektlarining alohida tomonlari, xususiyatlari ma'lum bo'lishi haqida to'xtaldi. M.N.Boltayev tomonidan Ibn Sinoning sezgi organlari, avvalo, qalbga, keyin miyaga xabarni yetkazadi, degan g'oyasini ta'kidlashlari bilishga oid yangicha yondashuvdir.

M.Boltayev Ibn Sinoning asari “Hikmat al-mashriqiyyin” - “Sharq falsafasi” topilmaganligini, undan faqat “Mantiq al-mashriqiyyin” - “Sharq mantiqi” deb nomlangan qismning muqaddimasi va bu asarning kichik bir qismi saqlanib qolganligini yozganlar²². Unda Abu Ali ibn Sinoga nisbat berilgan, ilm

²¹ Qarang: Болтаев М.Н. Абу Али Ибн Сина – великий мыслитель, учёный-энциклопедист средневекового Востока. - Москва: “Сампо”, 2002. –С.179-205.

²² Qarang: Ибн Сино. Муршид-ул-кифоя. Осори мунтахаб. Ч. 2. - Душанбе, 1983.- С. 155.

masalalariga oid fikrlarni o'z ichiga olgan to'rtliklari qolgan. Abu Ali ibn Sino to'rtliklarida olam sirlarini oxirigacha bila olmaganligini ifodalaydi. Mutafakkirning Hamadondagi yangi qabr toshiga o'yilgan to'rtlikda: "Men yer osti dunyosidan tortib Saturnning yorqinligigacha koinotning barcha sirlarini hal qildim. Ayyorlik va hiyla-nayrangni yengib, barcha tugunlarni kesib tashladim, faqat bitta – o'lim tugunidan tashqari"²³ degan fikrlar yozilgan.

Tadqiqotchi, M.Boltayevning Ibn Sinoning ratsional bilimiga oid qarashlarini o'rganar ekan "tafakkur idrokiga kelsak, Ibn Sinoning fikriga ko'ra, u chalg'itish darajasidan biroz oshib ketadi, chunki bilish shakli o'z-o'zidan moddiy bo'lmagan g'oyalarni qabul qiladi, garchi ular materiyada tasodifiy bo'lsa ham. Bunday idrokning namunalari – yaxshilik va yomonlik, do'stlik va birodarlik tushunchalari va boshqalar" – ekanligini asoslab bergan.

Dissertatsiyada M.N.Boltayevning ilmiy ishlari nafaqat O'rta Osiyo mutafakkirlarining falsafiy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasiga bag'ishlanadi, balki qadimgi Yunoniston, faylasuflarning inson hayotining mazmuni, umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar haqidagi g'oyalariga bag'ishlanganligi ochib berilgan. Bunday asarlardan biri qadimgi faylasuflardan Suqrot va Platonning dunyo falsafiy bilimlariga oid kitoblaridir. Ustoz M.Boltayevning bu mavzuga bag'ishlangan asarlari "Sokrat va Platon" nomida 2006 yilda Buxoro nashriyotidan chiqqan bo'lib, asarda qadimgi faylasuflar Platon va uning izdoshi Suqrot falsafasi tahlili taqdim etilgan.

"Biz Suqrotning asosiy e'tiqodlarini biroz yaqinroq va batafsilroq aniqlash uchun u qanday haqiqatga ishongani va insonlar uchun nima yaxshi ekanligini bilishimiz zarur. Suqrot o'z qarashlarini rivojlantirgan sharoitda u uyg'un falsafiy tizim bera olmagan va tizimli yozish uchun o'tirishga na xohish va na ehtiyojga ega bo'lganligi aniq. Uning ta'limoti og'zaki suhbat, dialoglar tarzida yetib kelganligi, Suqrotning avvalo, faylasuf-pedagog ekanligini anglash mumkin. U maxsus, ba'zan amaliy masalalardan umumiy muammolarga o'tadi. Bu uning o'zi bilan olib yuradigan hamda va'z qilishiga ilhom beruvchi haqiqatdir"²⁴.

Buxoro falsafa maktabida o'z o'rnini va obro'siga ega bo'lgan Muhammad Boltayevni qadimgi yunon falsafasi o'ziga shu darajada maftun etganki, Suqrot, Platon, Aristotel falsafasiga bag'ishlab alohida asarlar yozgan va tarjima etgan. Shu mavzuga bag'ishlangan "Aristotel", "Sokrat va Platon"²⁵, "Platon" nomli risolalari fikrimizning dalilidir. Unda savdo va pul munosabatlari, sudxo'rlik va kredit masalasi, davlat boshqaruvida monarxiya va demokratiya masalasi, oligarxiya, tiraniya, savdo, dehqonchilik, uy xo'jaligi va yerdan mohirona foydalanish, qarzdorlik, kreditorlik haqidagi fikrlar falsafiy tahlil qilingan. Nemis klassik faylasufi Immanuel Kantning falsafiy g'oyalari haqidagi tahlillari uning falsafa fani rivojiga qo'shgan hissasining beqiyosligi bilan ilm olamida ma'lumdir.

M.Boltayevning I.Kant haqida yozgan ilmiy risolalarida Kant etikasining eng oliy qadriyati – inson nafaqat tabiiy, balki erkin ham ekanligi, inson eng yuqori qadriyat hisoblanishi, insonning ma'naviy harakat qilish qobiliyati, ya'ni o'z

²³ Болтаев М.Н. Абу Али Ибн Сина – великий мыслитель, учёный-энциклопедист средневекового Востока. - Москва: "Сампо", 2002. –С. 179-205.

²⁴ Болтаев М.Н. Sokrat va Platon. – Бухоро, 2006. – Б.81.

²⁵ Болтаев М.Н. Sokrat va Platon. – Бухоро, 2006. – Б.75.

vazifasini bajarishi, asosiy postulat ekanligi, Kant jahon fuqaroligi to'g'risida ham qonun ishlab chiqqanligi, u mustamlakachilik va imperializmni rad etganligi, insonparvarlik bilan davolash g'oyalarini shakllantirgani, har bir inson har qanday mamlakatga tashrif buyurish huquqiga egaligi kabi fikrlar falsafiy tahlil qilingan²⁶.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Buxoro falsafa maktabining asoschisi, o'rta asr donishmandlari va olimlari hayoti va ijodini, ularning qarashlarini o'rganib tahlil etgan zabardast olim M.N.Boltayevning Sharq mutafakkirlarining tasavvufiy qarashlariga tadqiqotlari hammaning e'tiborini o'ziga tortadi. M.Boltayevning ilmiy-falsafiy merosida Abu Ali ibn Sino hayoti hamda ijodining fan hodisasi sifatida o'zbek falsafasida birinchi marta ilmiy ahamiyati tavsiflab berilgan, yosh avlodning va umuman, insoniyatning ilm tammadunini boyitishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Qadimgi Yunoniston faylasuflari haqidagi asarlarida ularning g'oyalarini islom va Sharq falsafasi masalalarida qanday qilib moslashtirish yoki tushunish mumkinligiga e'tibor qaratadi. Olim Suqrotning faylasuf sifatidagi o'ziga xosligini, muloqot va o'z-o'zini bilish usuli orqali haqiqatni izlashga e'tibor qaratganligini alohida ta'kidlaydi. Platon M.Boltayev talqinida dunyoga yuksak, ideal shakllarning in'ikosi sifatida qaragan, g'oyalar ta'limotini ishlab chiqqan faylasuf sifatida namoyon bo'ladi. Bebaho Sharq va G'arb falsafiy merosi M.Boltayev asarlarida ham e'tiborni tortadi, turli madaniy kontekstlarda qanday talqin qilish mumkinligini ta'kidlanadi. Bugungi kun yoshlari uchun har tomonlama ibrat bo'la oladigan tamoyillar, o'zlikni anglash g'oyasi, chin g'oyalar olami xususidagi qarashlar bugungi kunda har bir inson uchun hayotiy tamoyil bo'lishi ta'kidlangan.

M. N. Boltayevning ilmiy merosini tashkil etuvchi asarlar orasida uning "Gegelning mutlaq idealizmi"²⁷ falsafiy asarlari alohida o'rin tutadi. Olim M. Boltayevning bu asariga shogirdlari G.N. Navruzova va O.T.Sharipovalar taqriz berganlar.

M. Boltayev, Hegelning fikricha, falsafaning predmeti dinning aynan predmeti – Absolyut ruh ekanligini qayd etadi. Mutlaq Xudo hamma narsadir, lekin sof tafakkurda u o'zini adekvat tarzda ifodalaydi. "Mutlaq bilim" - bu Hegel tizimida o'z xulosasiga keladigan falsafa, shuning uchun inson Xudoni anglasa "o'zini anglaydi", lekin Xudoning mohiyati shundaki, u Ruhdir va o'z-o'zini anglash, fikrlashdan boshqa narsa emas²⁸.

Dissertatsiyaning **“M.Boltayevning tasavvuf va sotsiologiyaga oid asarlarining falsafa fani rivojidagi o'rni”** deb nomlangan uchinchi bobida M.N.Boltayevning tasavvuf ta'limotiga oid fikrlar tahlili keltirilgan. Xojagon-Naqshbandiya ta'limotining faylasuf-olim M.Boltayev talqinidagi ahamiyati, Abdurahmon Jomiyning “inson hayoti” tushunchasining mohiyati ochib berilgan hamda sotsiologiya ilmiga oid tadqiqotlarining umuminsoniy xususiyatlari tadqiq etilgan.

Barkamol avlod tarbiyasi ustivor yo'nalish bo'lgan hozirgi kunda insonni komillik darajasiga yetkazishga xizmat qiladigan ta'limotlarni o'rganish davr talabidir. Mustaqillik davrida M.Boltayev tomonidan insonshunoslik – tasavvuf

²⁶ Болтаев М.Н. Кант ва трансцендентал фалсафанинг асосланиши. – Бухоро, 2006. – Б.7.

²⁷ Болтаев М.Гегелнинг мутлақ идеализми. -М.: Помпатур, 2007.-Б.103.

²⁸ Болтаев М.Гегелнинг мутлақ идеализми. -М.:Помпатур, 2007.-Б.103.

haqida yaratilgan asarlarda Xojagon ta'limotining asoschisi Abdulxoliq G'ijduvoni hamda Naqshbandiya ta'limotining murshidi Abdurahmon Jomiy haqida yozilgan asarlari asosida ularning umuminsoniy mohiyati ochib berilgan. M.Boltayev tasavvuf ta'limotining bilimdoni sifatida "odam murakkab mavjudot bo'lib, ikki jihatdan jismaniy-jasadiy va ruhiy-ravoniy tomonlardan, ya'ni "Olami asg'ar" (Kichik olam) va "Olami akbar" (Ulkan ruhiy olam)dan iboratligini, insonning bir tomondan ilohiy, ikkinchi tomondan jismoniy va ijtimoiy mohiyatini" asoslab berganlar²⁹. "Xo'ja Abdulxoliq G'ijduvoni – insondo'st hakim, rif'at shayx"³⁰ nomli risolada Abdulxoliq G'ijduvoni yaratgan ta'limot, uning mazmun mohiyati, ahamiyati mohirona tahlil qilingan.

Dissertatsiyada olim M.Boltayevning "Naqshbandiya tariqatining asosiy xususiyatlaridan biri – insonning ichki dunyosi va o'zi bilan to'g'ri munosabatni anglashga intilishdir", degan fikrlari asoslanib, bu konsept ikki asosiy yo'nalishga egaligi qayd etilgan:

